

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**SAJID VALIYA VALAPPIL**

**BILINGVAL JAMIYATDA O‘ZBEK DISKURSIDAGI KOD  
ALMASHINUVINING LINGVO-KOGNITIV ASPEKTI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Sajid Valiya Valappil**

**Bilingval jamiyatda o‘zbek diskursidagi kod almashinuvining lingvo-kognitiv  
aspekti**..... 3

**Sajid Valiya Valappil**

**Lingua-cognitive aspects in code-switching and identity among bilingual societies  
in Uzbek discourse** ..... 23

**Саджид Валия Валаппил**

**Лингво-когнитивный аспект переключения кода в узбекском дискурсе  
билингвальной среды** ..... 43

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 51

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**SAJID VALIYA VALAPPIL**

**BILINGVAL JAMIYATDA O‘ZBEK DISKURSIDAGI KOD  
ALMASHINUVINING LINGVO-KOGNITIV ASPEKTI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/Fil5439 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) O'zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasi [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Morteza Amirsheibani**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Raximova Go'zal Yuldashovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning "20" 05 2025-yil soat 10.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 10074, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). O'zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va O'zbek filologiyasi fakulteti (1-qavat, 108-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (78 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "06" 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "6" 05 dagi 33 raqamli reyestr bayonnomasi)



**N.A.Rahmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**M.B.Xujamkulova**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.M.Kurbanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida globallashuv davrida turli tizimli tillarni turli diskurs doirasida sotsiolingvistik tatqiq qilish jahon tilshunosligida muhim vazifalardan biriga aylandi. Unga ko'ra, turli omillar (ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy va h.k.) ta'sirida xalqaro kommunikatsiyalarda amaliy tilshunoslikning muhim masalalardan biri siyosiy tilshunoslik, leksikografiya, tarjimashunoslik sohalarda til va madaniyat, til va jamiyat masalalari alohida planda o'rganilyotganligi ushbu sohalarda qator vazifalar bilan muammolarni hal qilish lozimligini ko'rsatadi.

Dunyo tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biri turli tizimli tillarning sotsiolingvistik mazmunini turli diskurs doirasida tushunishdir. Tilshunoslarning xalqaro muloqot uslubiga turli omillar (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va lingvistik) chuqur ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro muloqotda amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan eng muhim masalalar sifatida til va madaniyat, til va jamiyat masalalari siyosiy tilshunoslik, leksikografiya va tarjimashunoslik sohalarida alohida o'rganilmoqda. Bu yo'nalishlarda bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjud.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini yana-da mustahkamlash borasida mamlakatda olib borilayotgan til islohotlari diqqatga molik. Ma'lumki, jamiyatda turli til vakillarining bir jamiyatda istiqomat qilishi hamda fan-texnika rivoji ta'sirida tillararo ta'sirlashuvining ijtimoiy vaziyat va shaxsiy o'ziga xoslik talablariga moslashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda. Endilikda jahon tendensiyalari ta'sirida xalqaro biznes va ta'lim sohasidagi imkoniyatlarning taboro kengayib borayotganligi aksariyat yoshlar orasida ingliz tilining tobora ommalashib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, lisoniy hamjamiyatda til almashtirish hodisasini madaniy moslashuvchanlik va ikki yoki ko'p tillilik ko'rsatkichining o'zgarishiga ham ta'sir qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi"da belgilangan davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga doir vazifalar, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PQ-4996-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-son qarorlari, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori hamda tilimizning amaldagi faoliyatiga tegishli boshqa normativ-huquqiy

hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ma'lum darajada o'z hissasini qo'shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Globallashuv davrida zamonaviy sotsiologiyistik muhitning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish maqsadida ikki yoki undan ortiq tillarning qo'llanilishi xususiyatlari hamda bilingval jamiyatda kod almashtirish masalasi o'rganilib kelinmoqda. Bu jarayon globallashuv davridagi til o'zgarishlarining asosiy yo'nalishlari va tendensiyalarini tahlil qilish orqali ushbu sohadagi muhim yo'nalishlar haqida tasavvur beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, kod almashtirish mexanizmlarini tadqiq qilish dolzarb masala ekanligi ta'kidlanmoqda. Zotan, turli tizimli tillar o'rtasida kod almashtirish imkoniyati, kognitiv ongning qabul qilish qobiliyati, shuningdek, shaxslararo kod almashinuvida olam manzarasini qayta ishlash mexanizmlari muhim sanaladi. Tilshunoslar tomonidan kod almashtirish hodisasini tadqiq etish turli yondashuvlarga asoslanilgan. Unga ko'ra, muayyan gapda bir nechta tillarning grammatik jihatdan qanday almashtirilishi kun tartibiga qo'yilgan. Nutqiy akt doimiy o'zgarib boruvchi hodisa sifatida ko'p madaniyatli jamiyatda kod almashtirish qobiliyati har bir inson egallashi zarur bo'lgan muhim ko'nikma hisoblanadi. Zero, ushbu ko'nikma bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga o'ta olish qobiliyati sifatida noqulay vaziyatlardan chiqish, til orqali umumiy jihatlarni topish va kasbiy hamda shaxsiy hayotimizda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

So'nggi o'n yillikda ikkinchi tilni o'zlashtirish (SLA) sohasida kod almashtirish (CS) bo'yicha tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi. Bu borada kognitiv tilshunoslik, antropologiya, til o'qitish, psixolingvistika va sotsiologiyistik kabi sohalarda ham ushbu mavzu tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda<sup>1</sup>. 2005-yilda "Tilshunoslik va til xulq-atvori referatlari" (LLBA) elektron ma'lumotlar bazalarida kod almashtirish bo'yicha 1800 ta tadqiqotlar aniqlangan. C.Nilep 2008<sup>2</sup>, 1992-yildagi "Ko'p tilli va ko'p madaniyatli rivojlanish

---

<sup>1</sup> Sakurama M. on her dissertation Beyond Bilingualism: a Discourse Analysis of Uzbek-Russian Code-switching in Contemporary Uzbekistan, Turkophone, 2024. – № 11 (2). – P. 118-137, 112; Margarita A.B. Code-switching (Russian-English) in the Discourse of IT-Specialists from Moscow, research program, linguistics WP BRP 103/LNG/2020. – P. 5-16; B. Janurik dissertation on Erzya-Russian bilingual discourse: A structural analysis of intrasentential code-switching patterns. – Szeged, 2017. On summary. – P. 2-9; Zuercher K. on his thesis Azerbaijani-Russian Code-switching and Code-mixing: form, Function, and Identity, the University of Texas at. – Arlington, 2009. December. – P. 176; Odagiri N. On his research Patterns and Features of Kyrgyz-Russian Code-switching in Bishkek, 2020. – P. 22-37; Sichyova O. N. her works summary on A note on Russian-English code switching at Amur State University, 2005. – P. 3-14; Wong Sydney Jing Tian. Linguistic patterns of code switching in mainland China. HKBU Institutional Repository, 2014. – P. 114; Abushahin, Shaker A. Code-switching in the Qatifi dialect of Saudi Arabia. Virtual Press, 1992. – P. 58; Amuda A.A. Yoruba/English code-switching in Nigeria: Aspects of its functions and form. Thesis, University of Reading, 1986. – P. 87; Takagi Miyako. Variability and regularity in code-switching patterns of Japanese/English bilingual children. Thesis, University of Newcastle upon Tyne, 2000. – P. 57.

<sup>2</sup> Nilep C. at Nagoya University Article published on Code Switching in Sociocultural Linguistics, 2006. January. – P. 211.

jurnali” hamda 1989-yildagi “Jahon ingliz tillari”<sup>3</sup> jurnallarida kod almashtirish masalasi tahlilga tortilgan. Nutqda turli tillarning almashib qo‘llanilishini anglatuvchi kod almashtirish (code switching) atamasi dastlab E.Xaugen tomonidan ishlatilgan<sup>4</sup>. Keyinchalik E.Benson<sup>5</sup> bunga e’tiroz bildirgan. U.Xaugen asosan til “aralashuvi”ni kompyuter fanlari doirasida ko‘rib chiqqanini va “past darajali aql” bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tilga olganini ta’kidlaydi. Shuningdek, J.Faraj<sup>6</sup> “Kod almashtirish va kod aralashtirish” mavzusida tadqiqot o‘tkazib, ikki tilli va ko‘p tilli kishilar orasida kod almashtirishning keng tarqalganligini aniqlagan. Bundan tashqari, P.Auer<sup>7</sup> til almashtirish orqali kod almashtirishdan qo‘shilgan lahzalar: ikki tilli nutqning dinamik tipologiyasi haqida batafsil ma’ruza qildi. U kod almashtirishning muayyan jamiyat madaniyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, qolaversa, tilshunoslik va lug‘atshunoslik manzarasini qanday o‘zgartirishini aniq tushuntirib bergan. Shuningdek, Z.Ciriaco<sup>8</sup> o‘z dissertatsiyasida Kaliforniya vodiysidagi kod almashtirishning ikki tilli kishilar nutqidagi ifodasi va kod almashtirish jarayonini qay tarzda amalga oshirish usullari hamda uning ma’lum bir avlod ongiga singib borayotganligini qayd etadi. Rus tadqiqotchilaridan biri N.Sichyova<sup>9</sup> ingliz so‘zlaridan foydalanish orqali rusiyabon kishilar orasida kod almashtirishning keng tarqalganligini aniqlagan va ikki tilli kishilar orasidagi ijtimoiy kontekstlar hamda o‘ziga xos funksiyalarni tadqiq etgan. Shuningdek, M.Nakamura<sup>10</sup> o‘zbek va rus tillari o‘rtasidagi kod almashtirish borasida kuzatishlar olib borgan hamda uni bilingvizm misolida zamonaviy O‘zbekistonning lisoniy manzarasini ko‘rsatishga harakat qilgan. A.Kasimovning<sup>11</sup> ikkinchi tilni o‘zlashtirish bo‘yicha tadqiqotlari kod almashtirish mavzusiga bag‘ishlangan va ko‘p tilli muloqotni o‘rganish uchun yo‘l ochgan. Bundan tashqari, M.Nazira<sup>12</sup> O‘zbekistonda kod almashtirish va kod aralashtirishning lingvistik, ijtimoiy va ta’limiy jihatlarini tadqiq etdi. S.Djumaniyazova<sup>13</sup> bilingvizm mavzusini zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rgandi, shuningdek, ikki tillilikka sotsiolingvistik yondashuv sifatida lingvomadaniy hodisaning assotsiativ ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqish imkonini

---

<sup>3</sup>Taylor & Francis Peer-reviewed journals from about Code switching // <http://www.tandf.co.uk/journals>  
<https://www.tandfonline.com/>

<sup>4</sup>Haugen E.'s book, *Bilingualism in the Americas*, introduced the term code-switching.

<sup>5</sup>Benson E.J. The neglected early history of codes witching research in the United States // *January Language & Communication*, 2011. – № 21, (1). – P. 132.

<sup>6</sup>Faraj S.J. Code Switching and Code Mixing // *Journal of University of Human Development*, 2018. Dec. – № 4. – P. 86.

<sup>7</sup>Auer P. Universität Konstanz, Sekretariat LS Angl. Sprachwissenschaft // InLiSt PB D 180, D-78457 Konstanz Code switching. – P. 79.

<sup>8</sup>Ciriaco Z. Faculty de Lingus, A complete dissertation // <https://repositorioinstitucional.buap.mx/bitstreams/> – P. 233.

<sup>9</sup>Olga N.S. A note on Russian-English code switching // <https://doi.org/10.1111/j.0883-2919.2005.00432.x>, November. 2005.

<sup>10</sup>Nakamura M. (2024). *Beyond Bilingualism: A Discourse Analysis of Uzbek-Russian Code-Switching in Contemporary Uzbekistan*. – P. 166.

<sup>11</sup>Kosimov A. See discussions about Code switching among Bilinguals, stats, and author profiles for this publication at: Kosimov Fergana State University.

<sup>12</sup>Ilkhomovna M.Z. Linguistic, Social, and Educational Implications of Code Switching and Code Mixing in Uzbekistan, 2024. *International Journal of Artificial Intelligence*. – P. 233.

<sup>13</sup>Djumaniyazova S. Web of Humanities // *Journal of Social Science and Humanitarian research about code switching and mixing*, 2024. October. Volume 2. Issue 10. ISSN (E): 2938-3803. – P. 376.

bergan. G.Rafailovna<sup>14</sup> esa chet tilini o'qitishda kod almashinuvining ahamiyati, uning ta'lim va kasbiy sohalarga ta'siri haqidagi xulosalarni taqdim etgan. S.Malohat<sup>15</sup> bilan N.Aminova muallifligidagi tadqiqotda mamlakatdagi kod almashtirish jarayoni tahlil qilingan va ingliz tilidagi kod almashtirish hamda ikki tillilik bo'yicha nazariy mulohazalar bildirilgan. A.Burdygina<sup>16</sup> Rossiyadagi IT-mutaxassislari orasidagi nutqda kod-almashtirish (ruscha-inglizcha) va bu tendensiyaning salbiy tomonlari, shuningdek, uning kasbiy rivojlanishga qay tarzda yordam berishi hamda xalqaro mijozlar bilan virtual uchrashuv paytidagi muloqotni qanday osonlashtirishi haqida mulohazalarini tadqiqotlarda dalillashga harakat qilgan.

**Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan aloqadorligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Amaliy va kompyuter tilshunosligi" yo'nalishi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqot maqsadi kod almashtirish jarayonida tilni qayta ishlashning lingvokognitiv jihatlarini o'rganish va bu jarayonlarning bilingval diskursda o'zlik tushunchasining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiq etish sanaladi.

**Tadqiqot vazifalari.** Ushbu tadqiqot O'zbekistonda kod almashtirish dinamikasini empirik jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lib, quyidagi vazifalardan iborat:

– lisoniy hamjamiyatda bilingval shaxslarda lingvistik layoqat (o'zbek va ingliz tillari) hamda kod almashtirish ketma-ketligi o'rtasidagi aloqadorlikni tahlil qilish;

– O'zbekistonda turli ijtimoiy vaziyatlarda ikki tilli so'zlovchilarning turli guruh mansubligiga oid kod almashtirishning ta'sirini asoslash;

– bilingval diskursda kishilarining kod almashtirish amaliyotiga motivatsion jihatlarining (ijtimoiy harakatchanlik, akademik yutuqlar va kasbiy rivojlanish maqsadlari kabi) ta'sirini aniqlash;

– og'zaki va yozma muloqotda ijtimoiy tarmoqlardagi kod almashtirish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar hamda ularning o'zga til vakillari bilan muloqot qilish uchun o'zbek tilini boshqa xorijiy tillar bilan raqamli jargon sifatida qo'llash holatini tavsiflash.

**Tadqiqotning obyekti.** Bilingval jamiyatda o'zbek diskursi tadqiqot obyekti sanaladi.

**Tadqiqotning predmeti** muloqot jarayonida boshqa tillarning o'zbek tili bilan uyg'unlashuvi va buning vaqt o'tishi bilan tobora keng tarqalishini o'rganish tashkil qiladi.

---

<sup>14</sup> Rafailovna G. Language transmission in the classrooms // <https://cyberleninka.ru/article/n/code-switching-in-teaching-a-foreign-language>. - P. 196.

<sup>15</sup> Malohat G. Theoretical analysis of English language code-switching and bilingualism.docx-89 <https://www.coursehero.com/file/235109757/Theoretical-analysis-of-English-language-code-switching-and-bilingualismdocx/>.

<sup>16</sup> A. Burdygina Series about Code switching: linguistics wp brp 103/Ing/2020, <https://wp.hse.ru/data/2020/12/18/1358668370/103LNG2020...> - P. 233.

**Tadqiqot usullari.** O‘zbekistondagi lingvistik o‘zgarishlarni o‘rganish uchun turli xil ma’lumot to‘plash vositalari qo‘llanilgan, jumladan so‘rovnomalar, anketalar, intervyular, alohida holatlar tahlili, kuzatuv usullari, ishtirokchilarni kuzatish va uzoq muddatli tadqiqot kabilar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

– lisoniy hamjamiyatda Sharq va G‘arb o‘rtasidagi o‘ziga xoslikni ifodalovchi o‘zbek va ingliz tillari misolida “O‘zben g tili” deb nomlangan yangi atama taklif etilgan;

– O‘zbekistonda raqamli platformalarning gibrid tillar rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasini o‘rganish orqali mahalliy miqyosda onlayn kommunikatsion vaziyatning oflayn muloqotiga va uning til evolyutsiyasiga ta’siriga doir ilmiy mulohazalar dalillangan;

– tadqiqot natijasida maktab va ish joylarida kodlarni almashtirish lisoniy hamjamiyatda uning mahalliy hamda global miqyosda muloqotni yaxshilash uchun foydalanish mumkinligi, shuningdek, o‘zbek tili va madaniyatini shakllantirishda o‘zining an’anaviy qadriyatlarini zamonaviy ta’sirlar bilan muvozanatlashtirish holatlari yuzasidan nazariy qarashlar faktik manbalar bilan asoslangan;

– tadqiqot doirasida o‘zbek yoshlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llaniladigan raqamli slenglar o‘rganilib, u yoki bu so‘zlarning virtual muloqotda qo‘llanilishi natijasida o‘zbek tili lug‘at boyligiga, og‘zaki va yozma nutqqa ko‘rsatayotgan ta’siri masalalari yoritib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.** Tadqiqot yakunlari dissertatsiya xulosasida batafsil yoritilgan va O‘zbekistondagi kod almashtirish bilan bog‘liq bir qator mavzular nufuzli jurnallarda e’lon qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llangan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar ilmiy va metodologik tamoyillariga mosligi, ishning maqsadi va vazifalariga binoan ratsional-tipologik, sotsiolingvistik, substansial, diskursiv tahlil metodlari vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, kod almashtirish hodisasini lingvo-kognitiv aspektda tahlil qilish va ularning nazariy asoslarini o‘rganish orqali til nazariyasi hamda sotsiolingvistika uchun muhim resurs vazifasini bajaradi. Shunga asosan, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muhim sanaladi. O‘zbekistonda kod almashtirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar nazariy yutuqlar va ijtimoiy tilshunoslik dinamikasi bilan ajralib turadi, ayniqsa, ko‘p tilli muhitlarga e’tibor qaratilganda buni sezish mumkin. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy vaziyatga qarab, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar o‘zbek, rus va ingliz tillari o‘rtasida almashib gaplashishlari mumkin. Bizningcha, bu holat insonning til tanlashiga uning iqtisodiy va ijtimoiy mavqeyi ta’sir ko‘rsatishini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Nazariy tilshunoslik”, “Sotsiolingvistika”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Amaliy lingvistika” kabi fanlardan mashg‘ulotlar olib borish, maxsus kurs, seminarlar o‘tkazishda hamda o‘quv qo‘llanma, darslik, majmualar yaratishda,

lugʻatlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, kelgusida mazkur sohada amalga oshirilishi mumkin boʻlgan fundamental tadqiqotlarga metodik jihatdan resurs boʻla olishi dissertatsiyaning amaliy ahamiyatini bildiradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bilingval jamiyatda oʻzbek diskursidagi kod almashinuvining lingvo-kognitiv aspektda tadqiqidan 2024-2025-yillarga moʻljallangan “Yangi soʻz va atamalarning oʻzbekcha muqobilini sunʼiy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy taʼminoti platformasi va mobil ilovalarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada Oʻzbekistonning Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi oʻziga xos mavqeyini aks ettiruvchi oʻzbek hamda ingliz tillarining mos uygʻunligini yaratish zaruriyati aniqlanib, kod almashtirish, (code switching) sifatida “Uzbenglish” atamasi taklif qilinganligi dasturiy taʼminot bazasi uchun kiritiladigan ayrim oʻzlashma soʻzlarni nazariy jihatdan asoslashda foydalanilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda kod almashinuviga doir nazariy fikrlar oʻrganilib, Oʻzbekistondagi raqamli platformalarning mahalliy kontekstida onlayn va oflayn muloqotdagi tilning dinamik xususiyatiga taʼsir etishi hamda qorishiq tillar paydo boʻlishida ijtimoiy omillar taʼsiri nazariy jihatdan dalillanganligi loyiha uchun metodologik manba vazifasini oʻtagan.

Oʻzbekiston Milliy universitetida bajarilgan “REP-25112021/113 – UzUDT: Oʻzbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bogʻliqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili” mavzusidagi xalqaro ilmiy loyihada oʻzbek yosh avlodi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda keng qoʻllaniladigan raqamli jargonlar va bu soʻzlarning virtual muloqotda oʻzbek tili leksikasining ham ogʻzaki diskurs, ham yozma matnga qanday taʼsir koʻrsatishi haqidagi ilmiy farazlari olib borilgan amaliy tajribalarda oʻz isbotini topgan. Unga koʻra, bir nechta tilda gapiruvchilarning muayyan mavzuda yoki sohasiga qarab ularning ikki tilga oid kodlardan qorishiq holda foydalanish, baʼzan har ikki tildan yagona leksema yaratish va uni tez tushunishga xizmat qiluvchi umumiy muloqot tilini hosil qilishga omil boʻlganligi loyihaning atamalarga oid ilmiy mazmunini boyitishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari boʻyicha 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruzalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiyaning mavzusi doirasida jami 12 ta ilmiy maqola va tezis (ularning 2 tasi OAK tavsiya etgan ilmiy jurnallarda, 2 ta Impakt faktor bazasida indekslangan xorijiy jurnalda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, umumiy hajmi 129 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor

yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kod almashtirish boʻyicha nazariyalar va yondashuvlarga umumiy nazar”** deb nomlangan birinchi bobining *“Lisoniy hamjamiyatda kod almashtirishning lingvistik xususiyatlari va ahamiyati”* ga bagʻishlanib, unda oʻzbek, rus va ingliz tillarini bilish darajasi oʻzbeklarning kod almashtirish xulq-atvoriga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi muhim omil ekanligi, til bilish darajasi aholining turli qatlamlari orasida yosh, taʼlim darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy holat kabi omillar taʼsirida sezilarli farq qilishi, madaniyat milliy til bilan chambarchas bogʻliq fenomen sifatida nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy meros, qadriyatlar va ijtimoiy mavqening ifodasi sifatida ham xizmat qilishi, kundalik hayotda oʻzbek, rus va ingliz tillarining oʻzaro aloqasi keng qamrovli ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarni, jumladan tarixiy meros, milliy gʻurur va globallashtirish taʼsiri ekanligi haqidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Maʼlumki, Oʻzbekiston hududida, ayniqsa, shahar muhitida kod almashtirish turli xil vaziyatlarda sodir boʻladi, oilaviy yigʻilishlar va ijtimoiy munosabatlardan tortib taʼlim muassasalari, ish joylari va raqamli ommaviy axborot vositalari bu jarayonlarni kuzatish mumkin. Bugungi kunda oʻzbek lisoniy hamjamiyatida ingliz tilini oʻrganish va undan foydalanishga boʻlgan intilish yuqori boʻlib, bunga asosiy omillar sifatida akademik yutuqlarga erishish, karyerani rivojlantirish va ijtimoiy harakatchanlikka boʻlgan ishtiyoq kabilarni keltirish mumkin. Zotan, individ oʻzini global hamjamiyatning bir qismi sifatida koʻrsatish yoki zamonaviy, bilimdon shaxs sifatida namoyon boʻlishda turli vaziyatlarda ingliz tilidan koʻproq foydalanishga harakat qiladi.

Taʼlim jarayonida koʻpincha oʻrganishni osonlashtirish, tushunchalarni aniqlash va murakkab gʻoyalarni anglash uchun oʻzbek, ingliz va rus tillari oʻrtasida kod almashtirish hodisasi adresat hamda adresant muloqotini taʼminlashga xizmat qiluvchi omil boʻlib xizmat qiladi. Muayyan muhit sharoitida kod almashtirish pedagogik vosita sifatida xizmat qilib, oʻquvchilarga til boʻshliqlarini toʻldirish va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Taʼlim jarayonida kod almashtirish qanday ishlashini tushunish, talabalarning lingvistik voqeligini hisobga oladigan, kognitiv moslashuvchanlikni ragʻbatlantiradigan va shaxsiy rivojlanishni qoʻllab-quvvatlaydigan yanada samarali oʻqitish usullarini yaratishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot oʻzbek tili va madaniyatini saqlash bilan birga, ingliz tili orqali global aloqalarni rivojlantirish zaruriyatini muvozanatlashtiruvchi til siyosatini shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv jarayonlar, kod almashtirish va ikki tillilikni oʻrganish sohasida yangi tushunchalarni tahlil qilishga yordam beradi. Kod almashtirish koʻpincha kontekstga bogʻliq boʻlib, unga bir qator lingvistik, ijtimoiy va psixologik omillar taʼsir koʻrsatadi. Kommunikativ vaziyatda odamlarning bir nechta tilda qanday muloqot qilishini oʻrganish orqali sotsiolingvistik aspektda til haqida uning dinamik jarayonini kuzatish, tahlil qilish, qolaversa, baholash mumkin boʻladi. Bunda kishilar orasida kognitiv ong va

kognitiv bilim muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, kod almashtirish paytida ijtimoiy kontekstlar, madaniy o'ziga xoslik va til qobiliyatining kognitiv jarayonlar bilan qanday o'zaro aloqada bo'lishini baholashda turli sotsiolingvistik instrumentariydan foydalaniladi.

Bilingval jamiyatda kommunikativ diskursda kod almashtirish tilning globallashtirish sharoitiga nechog'lik moslashganligi ham muhim sanaladi. Masalan, ingliz tili lingua franca sifatida og'zaki va yozma ilmiy diskurs tiliga aylanib ulgurdi. Tabiiyki, uning ta'siri nafaqat ingliz tili bilan bog'liq sohalarda, balki integrallashgan sohalarda buni yaqqol ifodasini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi manbalarda kod almashtirishning ijobiy yoki afzalliklari bilan birga uning kamchiliklari yoki noqulayliklari haqida fikr bildiriladi. A.Dyurking ta'kidlashicha, eksperimental va korrelyatsion tadqiqotlar asosida, kod almashtirish ish joyida, ayniqsa, qora tanlilar uchun foydalidir. Ish joyida qora tanlilar tomonidan amalga oshirilgan kod almashtirish ham oq tanli, ham qora tanli hamkasblar tomonidan kasbiy mahoratning yuqori darajasi sifatida qabul qilinadi.

Kod almashtirish, interferensiyadan farqli ravishda kommunikativ vaziyatni butunlay til nuqtayi nazaridan o'zgarishini bildiradi. Masalan, biror tilda qo'shma gapdagi bosh gap va ergash gapning ketma-ketligi ikkinchi tilde, umuman, o'zgarishi mumkin. Turli tizimli tillar mavjud bo'lgan etnik-lingvistik hududlarda kod almashtirish tabiiy hodisa hisoblanadi. Tillar o'rtasidagi aloqalar, odatda, tarixiy, siyosiy yoki geografik omillar tufayli yuzaga keladi, bunda tillar o'zaro ta'sir natijasida yoki ulardan birining ustunligi sababli o'zgarishga uchraydi.

So'nggi zamonaviy tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlar ikki tillilikni yanada murakkab, tajribaga asoslangan aspektda o'rganishni vazifa qilib qo'ydi.

Dissertatsiyaning "*O'zbek diskursida bilingval kommunikativ vaziyat va uning tarixiy ildizlari*" deb nomlangan ikkinchi faslida O'zbekiston sharoitida kod almashinuvining lingvokognitiv jihatlari va uning nutqi akt jarayoniga ta'siri masalalari tahlilga tortilgan. Tilni bilish, madaniy o'ziga xoslik, ijtimoiy kontekstlar, psixologik omillar, ta'lim siyosati va iqtisodiy va siyosiy ta'sirlar kabi asosiy o'zgaruvchilarni o'z ichiga olgan jarayonlarni metodologik baholash muhim sanaladi. O'zbek diskursi boy tarixga ega bo'lib, yillar davomida qardosh xalqlar bilan doimiy yaqin aloqada bo'lgan. Bunga iqtisodiy, madaniy, hududiy va siyosiy vaziyatlar omil bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston lisoniy hamjamiyada kod almashinuvini evolyutsion jihatdan baholash tilning dinamik holatini yoritishga xizmat qiladi.

O'zbek jamiyatida zullisonaynlik (ikki tillilik)ning azaldan mavjud bo'lishi uning O'rta Osiyoda arab va o'zbek tillarining lingvistik hamda ekstralingvistik ta'siri natijasida, deb baholash mumkin. Unga ko'ra, VII-VIII asrlarda arab tili ta'sirida zullisonaynlik hodisasi shakllandi. XIV-XV asrlarda butun O'rta Osiyoda fors-tojik tilining qo'llanilishi va imkoniyatlari kengaydi. XX asrga kelib, O'rta Osiyo Rossiya Ittifoqi ostida birlashgan paytda o'zbek tiliga rus tili ta'siri kuchayib bordi. O'rta Osiyoda o'zbek-rus, o'zbek-arab va o'zbek-tojik zullisonaynligi bir vaqtda rivojlandi.

Ko'p tilli va ko'p madaniyatli jamiyatlarda yashovchi va turli tillarda yoki shevalarda so'zlashuvchi turli guruhlar bilan muloqotda bo'lgan kishilar kod almashtirish yaqqol seziladi.

Tadqiqot doirasida belgilangan vzaifalarni amalga oshirishda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

– O'zbekistondagi ikki tilli shaxslarda til bilish darajasi (o'zbek, rus va ingliz tillarida) va kod almashtirish chastotasi o'rtasidagi bog'liqlik qay tarzda kechishini aniqlash;

– kod almashtirish chastotasi bilingval jamiyatda o'zbek zabon vakillarning turli ijtimoiy muhitlarda (masalan, oilaviy, ta'lim, kasbiy) qadriyatlarini ifodalashda qay tarzda ta'sir etish imkoniyatini baholash;

– motivatsion omillar (ijtimoiy harakatchanlik, akademik yutuq yoki kasbiy rivojlanish istagi kabi)ning kommunikativ vaziyatda kod almashtirishga qay darajada ta'sir qilishini baholash.

### **Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib quyidagi farazlar ilgari surildi:**

– H1: O'zbekiston lisoniy hamjamiyatida ikki tilli shaxslarda til bilish darajasi (o'zbek, rus va ingliz tillarida) va kod almashtirish chastotasi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud.

– H2: Kod almashtirish chastotasi O'zbekistondagi turli ijtimoiy vaziyatlarda ikki tilli so'zlovchilarning o'zlikni anglashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

– H3: Motivatsion omillar (ijtimoiy harakatchanlik, akademik yutuq yoki kasbiy rivojlanishga intilish kabi) o'zbek ikki tillilarining kod almashtirish amaliyotlari chastotasi va kontekstiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kod almashtirish – bu turli vaziyatlarda, munozaralarda, muloqotlarda va boshqa holatlarda boshqa til yoki til variantidan foydalanish amaliyotidir. Ikki tilli yoki ko'p tilli so'zlovchilar suhbat davomida tillarni aralashtirishi yoki kod almashtirishdan foydalanishi mumkin. Bu jarayon ko'p tilli yoki ikki tilli shaxs bir tildagi so'z yoki iborani boshqasiga almashtirganda yuz beradi. Shuningdek, bu biror kishi bir tilning ikki tili yoki shevasida so'zlashganda ham sodir bo'ladi. Misol uchun, ingliz tili turli tajribalarni qamrab olish uchun qutblashgan. Xususan, rasmiy ta'lim va savodxonlik ingliz tilida olib borilsa, tijorat muloqotlarida boshqa tilda, dam olish va ko'ngilochar tadbirlar esa uchinchi tilda amalga oshiriladi N.Mercer hamda J.Swann<sup>17</sup>. Kod almashtirish motivlari sifatida obro'-e'tibor, suhbat mavzusi, boshqalarning gapini yetkazish yoki iqtibos keltirish, ma'lum ma'lumotlarni ta'kidlash, suhbatdoshning til qobiliyati kabilar kiradi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “Sotsiolingvistik aspektida kod almashtirishga doir nazariy tadqiqotlar tahlili” deb nomlanib, kod almashtirishning o'ziga xos sotsiolingvistik muhitiga e'tibor qaratgan holda, lisoniy hamjamiyat, ikki tillilik, shaxsiy o'ziga xoslik va kognitiv jarayonlarning o'zaro bog'liqligi masalasiga bag'ishlangan ishlarga murojaat qilingan hamda unga munosabat bildirilgan. Ma'lumki, globallashuv davrida til muloqot vositasidan individual o'ziga xoslikni shakllantirish, ijtimoiy uyg'unlikka erishish va kognitiv moslashuvchanlikni

---

<sup>17</sup> Sanabar N.D. Analysis of source studies and historiography of Tashkent shrines. Galaxy International Interdisciplinary Research Retrieved from // <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3104>, Journal. – № 10 (12). – P. 627-635.

oshirish vositasiga aylandi. O‘zbek diskursining rus, fors va arab tillarining ta’sirida bir nechta leksik qatlam shakllandi: *poyezd, stol, doska, kastyum, mashina (rus), badjahl, daraxt, go’sht (forscha), maktab, vazir, maorif, jamoat, hokim (arab)*. Mustaqillikdan keyin o‘zbek tilining lotin yozuviga o‘tishi natijasida ingliz tilining ta’siri sezilarli darajda oshdi. Bu esa o‘zbek tili leksikonida yangi so‘zlarni faol qo‘llash natijasida dinamik til muhit shakllandi. Ayniqsa, yangi o‘zlashmalar paydo bo‘ldi: *menejment, bank, magistr, klaster va h.k.* Global va mintaqaviy izlanishlarni umumlashtirish, an’ana hamda zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi bilingval jamiyatni kod almashtirish misolida tahlil qilish ijtimoiy diskursning kognitiv funksiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotning nazariy metodologiyasini aniqlashda uning quyidagi tushunchalarini farqlash lozim: kod almashtirish va kod aralashtirish, kod almashtirish va so‘z o‘zlashtirish, bilingvizm va uning darajasi, lingvo-kognitiv jarayonlar, operatsion ta’riflar, kod almashtirish bo‘yicha empirik tadqiqotlar, sotsiolingvistik jihatlar, kognitiv jihatlar, nutqning shakllanishi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, kod almashinuvi turli kommunikativ sharoitda voqelanadi. Masalan, ta’lim muhitida kod almashtirish ikki tilli malakani qo‘llab-quvvatlash va kognitiv faollikni oshirishda samarali ekanligi isbotlangan<sup>18</sup>. Ko‘p tilli sinflarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki<sup>19</sup>, kod almashtirish til va tushuncha bo‘shliqlarini to‘ldirishga yordam beradi, bu esa o‘qituvchilarga tushunishni osonlashtirish va faol ishtirokni rag‘batlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy hamda kasbiy muhitlarda kod almashtirish muloqotni yaxshilash, ijtimoiy birdamlikni shakllantirish va turli xil til muhitlariga moslashish vositasi sifatida xizmat qiladi. Afrika va Osiyoning ko‘p tilli hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki<sup>20</sup>, kod almashtirish mutaxassislariga til xilma-xilligini boshqarish hamda shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish imkonini beradi.

Kognitiv tilshunoslikda<sup>21</sup>tildan g‘oyalar, his-tuyg‘ular, e’tiqod va boshqa narsalarni ta’sir qildirishda foydalaniladi. Nutqdan foydalanish, qayta ishlash, dekodlash va saqlash bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganish orqali til hamda boshqa kognitiv qobiliyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunish mumkin. Kodlarni almashtirishning psixolingvistik modellari hamda sotsiolingvistik nazariyalari yaratilgan<sup>22</sup>. Shuningdek, kompyuter lingvistikasida ikki tilli sinflar va sotsiolingvistik kontekstlarda kod almashtirishga oid oldingi tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, yanada chuqurroq metodikalar va fanlararo yondashuvlarni talab qiladi.

---

<sup>18</sup> Albarillo F. Information Code-Switching: A Study of Language Preferences in Academic Libraries, 2018. Vol. 79. – P. 5-48.

<sup>19</sup> Cuddy S. Code-switching: the pressure on people to change how they speak, lecturer in sociolinguistics at Queen Mary University of London, has written for the Conversation on the linguistic practice of code-switching, 2022. December.

<sup>20</sup> Ezeh G. Code Switching and Code Mixing in Teaching and Learning of English as a Second Language: Building on Knowledge Published by Canadian Center of Science and Education, 2022. August.

<sup>21</sup> Tran1 T., Nhan T. Code-switching in Communication by Male and Female English-major Students: A Case Study at Two Selected Universities in Binh Duong Province, World Journal of English languagesciedupress, 2023. July.

<sup>22</sup> Faltis J. and MacSwan J. codeswitching in the classroom, center for applied linguistics, Books in the series include: Tension and Contention in Language Education for Latinxs in the United States, Taylor& Francis. – P. 344.

O‘zbekistonning tarixiy konteksti va zamonaviy global ta’sirlarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot tilning tez o‘zgarayotgan ijtimoiy-lingvistik muhitda qanday ishlashini o‘rganish uchun imkoniyatini yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Kod almashtirish jarayonida sotsial muhit va uni baholash instrumentlari**” deb nomlanib, unda tavsifiy-sifat usuli yordamida hududdagi vaziyatni uslubiy, faktik va aniq tavsiflashda qo‘llash mumkinligi, sifat yondashuvining ma’lumotlar tahlili natijasida so‘zlar, gaplar va iboralar kabi tasviriy hodisalar yuzaga kelishi kabi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu bobning ikkinchi fasli “*Kodni almashtirish tendensiyasini ishlab chiqish strategiyasi va asoslari*” deb nomlanib, unda tadqiqot uchun zarur bo‘lgan sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtirgan aralash usullar yondashuvidan foydalanish borasidagi afzalliklar sanab o‘tilgan. Bu yondashuv keng qamrovli masalalarni ochib berishga yordam beradi. Zero, miqdoriy ma’lumotlar statistik asosni ta’minlasa, sifat asoslangan usul ma’lumotlarning qay darajada to‘liq va uning mazmunini ifodalaydi. Alohida ta’kidlash o‘rinliki, *aralash usul=(statistik+sifat)* miqdoriy jihatdan tadqiqotchiga O‘zbekistondagi ikki tilli so‘zlovchilar orasida kod almashtirish chastotasi va qonuniyatlarini o‘lchash imkonini bersa, sifatga asoslangan usul ushbu qonuniyatlar ortidagi shaxsiy va ijtimoiy-madaniy sabablarni tushuntirishga yordam beradi. Bunda, avvalo, tanlov mezonlarini saralab olish muhim jihatlardan sanaladi. Ularga quyidagilar kiradi: til kompetensiyalari (masalan, o‘zbek va rus tillarini mukammal bilish), ijtimoiy omillar (shaharlik va qishloqlik, ta’lim darajasi kabi) hamda demografik xususiyatlar (yosh, jins). Shuningdek, *tanlov strategiyasi* uchun tavsiflash (masalan, sifatli komponentlar uchun maqsadli tanlov va miqdoriy qismlar uchun tasodifiy tanlov) ham asosiy indikator sanaladi. Ushbu strategiya o‘rganilayotgan aholi qatlamining xilma-xil va vakillik namunasini qanday ta’minlashini muhokama qilish vazifasini bajaradi.

Ilmiy ishning ikkinchi fasli “*Tadqiqot va baholash uchun ma’lumotlarni to‘plash va qayd etish vositalari*” deb nomlanib, miqdoriy vositalar uchun muhim usullar aniqlangan. Jumladan, so‘rovnomalar, so‘rovlar va maxsus tayyorlangan intervyular. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, S.Talmy<sup>23</sup> intervyular o‘n yillar davomida empirik tadqiqotlarda, ayniqsa, ijtimoiy fanlarda, qo‘llanilgan bo‘lib, amaliy tilshunoslikka ham tegishlidir. M.Kora<sup>24</sup>, davlat hokimiyati fikr erkinligiga ta’sir qilganligi uchun bu kabi tadqiqotlar intervyular, keys tadqiqotlari, etnografik tadqiqotlar narrativ tadqiqot usullari yordamida amalga oshirilgan. Intervyularining ushbu ikki va boshqa konseptualizatsiyasini o‘rganishda tadqiqotchilar quyidagi nazariy yondashuvlarni hisobga olishlari kerak: (a) tadqiqot loyihalarini tashkil etish, (b) ma’lumotlarni tahlil qilish va taqdim etish hamda (c) sifatni ko‘rsatish.

Tadqiqotimiz jarayonida ingliz tili darslarida kod almashtirish jarayonini kuzatdik. Unda quyidagi komponentlar muhim faktorlar sifatida inobatga olindi: a)

---

<sup>23</sup> Talmy S. wrote that research interviews as social practice view the interview process // <https://www.ajqr.org/download/a-review-and-critical-analysis-of-qualitative-methodologies-and-data-collection-techniques-used-for-12988.pdf>, 2010.

<sup>24</sup> Kora M. Scholar in applied linguistics have advocated for offering a choice of language and enabling code-switching (CS) Pavlenko within interviews // <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/01434632.2023.2199000>

